

5/2025,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00079)



DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBA: ILG‘OR MAMLAKATLAR MISOLIDA TAHLIL

Mamatqulov Bekzod Akmalovich

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Email: bekzodmamatkulov4444@gmail.com

ORCID:0009-0004-2019-222X

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/721

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirish yo‘lida ilg‘or xorijiy tajribalar, OECD davlatlari, Singapur, Janubiy Koreya va Qozog‘iston misolida tahlil etiladi. Tahlil jarayonida ularning iqtisodiy islohotlar modeli, raqamli boshqaruv tizimlari, byudjet intizomini mustahkamlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda innovatsion siyosatni amalga oshirishdagi yondashuvlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning “2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, iqtisodiy siyosatni natijadorlikka yo‘naltirish va institutsional salohiyatni oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlik, xalqaro tajriba, OECD modeli, Singapur islohotlari, Janubiy Koreya innovatsion siyosati, Qozog‘iston modernizatsiyasi, raqamli boshqaruv, davlat-xususiy sheriklik, O‘zbekiston-2030 strategiyasi.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕДОВЫХ СТРАН

Маматкулов Бекзод Акмалович

соискатель Академии государственной политики и управления

Аннотация

В данном исследовании анализируется повышение эффективности государственного экономического управления на основе передового зарубежного опыта, на примере стран ОЭСР, Сингапура, Южной Кореи и Казахстана. В ходе анализа изучаются их модели экономических реформ, системы цифрового управления, механизмы укрепления бюджетной дисциплины, государственно-частного партнёрства, а также подходы к реализации инновационной политики. Результаты исследования имеют практическое значение для модернизации системы государственного управления, ориентации экономической политики на результативность и повышения институционального потенциала в рамках стратегии «Узбекистан-2030».

Ключевые слова: государственное управление, экономическая эффективность, международный опыт, модель ОЭСР, реформы Сингапура, инновационная политика Южной Кореи, модернизация Казахстана, цифровое управление, государственно-частное партнёрство, стратегия «Узбекистан-2030».

IMPROVING THE EFFICIENCY OF STATE ECONOMIC GOVERNANCE: ANALYSIS BASED ON THE EXPERIENCE OF ADVANCED COUNTRIES

Mamatqulov Bekzod Akmalovich

Independent Researcher of the Academy of Public Administration

Abstrakt

This study analyzes ways to improve the efficiency of state economic governance based on advanced international experiences using the examples of OECD countries, Singapore, South Korea, and Kazakhstan. During the analysis, the research examines their models of economic reforms, digital governance systems, mechanisms for strengthening budget discipline, public-private partnership frameworks, and approaches to implementing innovation policy. The findings have practical significance for modernizing Uzbekistan’s public administration system, enhancing the results-oriented nature of economic policy, and increasing institutional capacity within the framework of the “Uzbekistan-2030” strategy.

Keywords: public administration, economic efficiency, international experience, OECD model, Singapore reforms, South Korea’s innovation policy, Kazakhstan modernization, digital governance, public-private partnership, Uzbekistan-2030 strategy.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirish har bir mamlakatning strategik ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar, raqobatning kuchayishi, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda global iqtisodiy inqirozlar davlat boshqaruvi tizimining moslashuvchanligi va natijadorligini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) davlatlari, Singapur, Janubiy Koreya va Qozog‘iston kabi mamlakatlarning ilg‘or tajribalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishda institutsional islohotlar, shaffoflik, hisobdorlik, raqamli boshqaruv va inson kapitaliga sarmoya kiritish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiy siyosatni natijalarga yo‘naltirish, davlat apparati faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishning barqaror modelini shakllantirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston uchun mazkur tajribalarning o‘rganilishi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi maqsadlariga erishishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston bugungi kunda iqtisodiy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, davlat apparatini optimallashtirish va innovatsion boshqaruv tamoyillarini joriy etish bosqichida turibdi. Jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish orqali iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, byudjet va moliya boshqaruvining shaffofligini ta‘minlash, raqamli hukumat tizimlarini kengaytirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. OECD mamlakatlarida natijaviy boshqaruv, byudjet nazoratining ochiqligi va strategik rejalashtirishning uyg‘unligi yuqori darajada shakllangan. Singapur modeli esa samarali davlat xizmatlari, korrupsiyaga qarshi qat‘iy mexanizmlar va inson resurslariga tayanadigan innovatsion boshqaruv tizimi bilan ajralib turadi. Janubiy Koreya tajribasi raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni iqtisodiy siyosat boshqaruviga tatbiq etish orqali “aqli davlat” konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishgan. Qozog‘iston esa sobiq sovet makonida davlat boshqaruvini transformatsiya qilish, “Open Government” platformasini joriy etish hamda xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash

bo'yicha samarali tajriba to'plagan. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilish davlat boshqaruvi tizimining yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy boshqaruv tajribalarini tahlil qilish, ularning muvaffaqiyat omillarini aniqlash va O'zbekistonning iqtisodiy boshqaruv tizimiga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalar ko'plab xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) doirasida R. Allen va D. Tommasi tomonidan yozilgan “Managing Public Expenditure: A Reference Book for Transition Countries” nomli asarda davlat byudjeti boshqaruvi, fiskal intizom, natijaviy boshqaruv va hisobdorlik tizimining ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Mualliflar OECD mamlakatlarida davlat xarajatlarini rejalashtirish va ularning samaradorligini baholash uchun natijaviy byudjetlash, indikatorlar tizimi va tahliliy monitoring mexanizmlarining joriy etilishi davlat iqtisodiy siyosatini barqarorlashtirganini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv davlat apparatining samaradorligini oshirish bilan birga, iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan moliyaviy intizomni ham mustahkamlagan.¹

Ikkinchi muhim manba sifatida Singapur modeliga bag'ishlangan M.Quahning “Public Administration Singapore-Style” nomli tadqiqoti alohida e'tiborga loyiq. Unda Singapur davlat boshqaruvining innovatsion modeli – “Clean Government”, “Smart Nation” va “Performance-Based Governance” konsepsiyalari asosida tahlil etiladi. Quahning fikricha, Singapurda korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosat, samarali inson resurslari boshqaruvi va natijadorlikka asoslangan maosh tizimi davlat apparatining yuqori sifatli ishlashini ta'minlagan. Shu bilan birga, “Smart Nation” dasturi orqali raqamli boshqaruv, ochiqlik va fuqarolarning davlat xizmatlariga erkin kirish imkoniyatlari yaratilgan. Bu tajriba O'zbekiston uchun davlat boshqaruvini inson resurslari va texnologik innovatsiyalar uyg'unligida takomillashtirishda muhim yo'nalish bo'la oladi.²

Janubiy Koreya tajribasini tahlil qilgan C.S.Chung va H.Choining “Analysis of digital governance transition in South Korea: Focusing on the leadership of the president for government Innovation” nomli ilmiy maqolasida esa davlat boshqaruvining zamonaviy raqamli transformatsiyasi chuqur o'rganilgan. Mualliflar Koreyada davlat sektori faoliyatini sun'iy intellekt, “big data” va “smart governance” tizimlari asosida optimallashtirish orqali iqtisodiy siyosatning samaradorligi sezilarli oshganini ta'kidlashadi. Tadqiqotda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning uchta asosiy ustuni – ochiqlik, texnologik integratsiya va innovatsion menejment sifatida ajratib ko'rsatilgan. Ushbu tajriba davlat xizmatlari sifatini oshirish va fuqarolarning ishonchini kuchaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.³

Hududiy jihatdan yaqin tajriba sifatida Qozog'istonning modernizatsiya siyosati ham alohida o'rganilgan. S.Bhuiyan va F.Amagoh tomonidan yozilgan “Public sector reform in Kazakhstan: issues and perspectives” nomli maqolada davlat boshqaruvining

¹ Richard A., Daniel T. (ed.). Managing public expenditure a reference book for transition countries: A Reference Book for Transition Countries. – OECD Publishing, 2001.

² Quah J. S. T. (ed.). Public administration Singapore-style. – Emerald Group Publishing Limited, 2010.

³ Chung C. S., Choi H., Cho Y. Analysis of digital governance transition in South Korea: Focusing on the leadership of the president for government Innovation //Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2022. – 2. 8. – №. 1. – C. 2.

transformatsiyasi, “Open Government” platformasi, korrupsiyaga qarshi kurash va natijadorlikka asoslangan boshqaruv tamoyillari yoritilgan. Mualliflar Qozog‘istonda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishda OECD standartlari va BMTning Yaxshi boshqaruv indikatorlariga mos keluvchi yondashuvlar joriy etilganini ta’kidlashadi. Shuningdek, ularning tadqiqotida “Digital Kazakhstan” dasturi orqali iqtisodiy boshqaruvning raqamli mexanizmlari shakllantirilgani va bu mamlakatda davlat sektorining samaradorligini oshirishga xizmat qilgani ko‘rsatib o‘tilgan.⁴

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirish bo‘yicha xalqaro tajribalarni tahlil etishda asosan nazariy tadqiqot metodlari qo‘llanilgan. Xususan, taqqoslash, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi metodlar yordamida OECD, Singapur, Janubiy Koreya va Qozog‘iston davlatlarining iqtisodiy boshqaruv modellari o‘rganildi. Shuningdek, me‘yoriy-huquqiy tahlil va institutsional yondashuv asosida mazkur mamlakatlarning davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishdagi tashkiliy, raqamli va innovatsion mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida xalqaro hisobotlar, ilmiy maqolalar, OECD tavsiyalari hamda hukumat islohotlari bo‘yicha ochiq manbalar tahliliy asos sifatida foydalanildi, bu esa O‘zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Davlat iqtisodiy boshqaruvi zamonaviy sharoitda milliy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti tobora globallashtirib borayotgan bir paytda davlatlarning iqtisodiy boshqaruv samaradorligi ularning xalqaro raqobatbardoshligi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini belgilab bermoqda. Shu bois, ilg‘or mamlakatlar tajribasini o‘rganish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy jihatdan ham katta dolzarflik kasb etadi. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlari, Singapur, Janubiy Koreya, Polsha va Qozog‘iston kabi davlatlar o‘zining iqtisodiy boshqaruv sohasidagi muvaffaqiyatli islohotlari orqali samaradorlikni oshirishning turli modellari va yondashuvlarini namoyon qilgan. Ushbu tajribalarni tahlil qilish O‘zbekiston uchun ham iqtisodiy siyosatni modernizatsiya qilishda muhim nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Ilg‘or davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy boshqaruv samaradorligi ko‘plab omillar, jumladan, institutsional tuzilmalarning mustahkamligi, davlat apparatining shaffofligi, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, samarali byudjet va soliq siyosati, shuningdek, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Singapur davlat boshqaruvida “raqamli hukumat” tamoyillarini joriy etib, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ochiqlik va tezkorlikni ta‘minlagan. Janubiy Koreya innovatsion rivojlanish va ta‘lim tizimiga qaratilgan strategiyasi orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishgan. Polsha esa Yevropa Ittifoqi integratsiyasidan samarali foydalangan holda iqtisodiy boshqaruvni modernizatsiya qilgan bo‘lsa, Qozog‘iston Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvinini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lida muhim tajribaga ega bo‘lgan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda ham iqtisodiy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va xalqaro tajribadan oqilona foydalanish masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Prezident tashabbusi

⁴ Bhuiyan S. H., Amagoh F. Public sector reform in Kazakhstan: issues and perspectives //International Journal of Public Sector Management. – 2011. – T. 24. – №. 3. – C. 227-249.


bilan olib borilayotgan “Yangi O‘zbekiston” strategiyasida davlat boshqaruvini transformatsiya qilish, iqtisodiy siyosatda shaffoflikni ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ilg‘or mamlakatlar tajribasini chuqur o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim nazariy asos hamda amaliy yo‘nalish vazifasini bajaradi. Bu esa mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o‘sishi, raqobatbardoshligi va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

OECD mamlakatlari modeli tahlili

OECD mamlakatlari iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishda institutsional islohotlarni chuqur amalga oshirgan va boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirgan. Ularning asosiy modeli “yaxshi boshqaruv” (good governance) tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar shaffoflik, hisobdorlik, samaradorlik, inklyuzivlik va barqarorlikni o‘z ichiga oladi. OECD mamlakatlarida iqtisodiy boshqaruv tizimining markazida davlat institutlarining samarali faoliyat yuritishi, bozor mexanizmlarining erkinligi va davlatning iqtisodiy jarayonlarga muvofiqlashtiruvchi hamda nazorat qiluvchi darajada aralashuvi yotadi. Shu bilan birga, davlat siyosatining muhim elementi sifatida ijtimoiy adolatni ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalalari doimo ustuvor hisoblanadi.

OECD mamlakatlari modelining muhim jihatlaridan biri davlat byudjetini samarali boshqarish va natijaga yo‘naltirilgan moliyaviy siyosatni yuritishdir. Masalan, “performance budgeting” tizimi orqali davlat xarajatlari faqat raqamlar bilan emas, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi bilan baholanadi. Bu tizim davlat organlarini aniq maqsadlar qo‘yishga va ularga erishish natijalari uchun javobgar bo‘lishga majbur qiladi. Bundan tashqari, soliq siyosati ham iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, soliq yuki mutanosib taqsimlanadi va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi mexanizmlar keng qo‘llanadi. OECD mamlakatlari tajribasida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, raqobatni rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi samarali choralarni amalga oshirish orqali iqtisodiy boshqaruvning barqarorligi ta’minlanadi.

Yana bir muhim xususiyat, davlat boshqaruvini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etishdir. OECD mamlakatlari elektron hukumat tizimlari, ochiq ma’lumotlar portallari va raqamli xizmatlar orqali nafaqat davlat idoralari samaradorligini oshirmoqda, balki fuqarolarning davlat bilan o‘zaro aloqalarini ham yengillashtirmoqda. Natijada, qaror qabul qilish jarayonlari tezlashadi, ortiqcha byurokratik to‘siqlar kamayadi va davlat boshqaruvi tizimida ishonch kuchayadi.




1-rasm. OECD mamlakatlari iqtisodiy boshqaruv modeli.⁵

Singapur modeli

Singapurning iqtisodiy boshqaruv modeli. Bu yuqori darajadagi institutsional uyg'unlik, qat'iy fiskal intizom va davlat-xususiy sektor hamkorligiga tayangan uzoq muddatli rejalashtirish tizimi. Mustaqillik (1965) arafasida ishlab chiqilgan “sanoatlashtirish va tashqi ochiqlik” strategiyasi tez orada institutsional poydevor bilan mustahkamlandi: 1961 yilda Ekonomik Rivojlanish Kengashi (Economic Development Board, EDB) to'g'risidagi qonun qabul qilinib, ishlab chiqarish bazasini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va klasterlarni shakllantirishga mas'ul yagona “bir eshik” idora barpo etildi. Bu yondashuv keyinchalik “statutory board”lar tarmog'i (MOM, MTI, HDB va b.) orqali ixtisoslashgan, tezkor va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmiga aylandi. Jahonga integratsiyalashuv ko'lami o'lchovlarda ham ko'rinadi: Singapurda savdo hajmi (eksport + import) YAIMga nisbatan dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega bo'lib, masalan, so'nggi yillarda bu ko'rsatkich 300% atrofida qayd etilgan (hukumat nutqlarida 311% atrofida baho ishlatilgan). Bu, tabiiyki, logistik markaz sifatidagi ahamiyati, erkin savdo tarmoqlari va intizomli bojxona-regulyator muhitining natijasi hisoblanadi.

Makroiqtisodiy boshqaruvning samaradorligi fiskal qoidalar bilan kuchaytirilgan. Konstitutsiyaga kiritilgan “sof investitsiya daromadlari hissasi” (Net Investment Returns Contribution (NIRC) orqali hukumat har yili rezident aktivlarining kutilayotgan real daromadining yarmigacha bo'lgan qismini byudjetga jalb qiladi; aktivlarni GIC, Temasek va MAS kabi sub'yektlar boshqaradi. 2024 yilda byudjet daromadlarining taxminan beshdan bir qismi (S\$23-24 mlrd atrofida) aynan ushbu investitsion daromadlardan shakllangan, bu esa yosh demografiya va kichik soliq bazasiga qaramay, ijtimoiy dasturlar va infratuzilmani moliyalashda barqaror manba yaratadi. Shunga qaramay, GIC aktivlari hajmi va kutilgan daromad kabi parametrlar to'liq oshkor etilmagan; rasmiy siyosat ochiqlikdan ko'ra uzoq muddatli xavfsizlikni afzal ko'radi. Investitsiya boshqaruvchilari rolining rasmiy taqsimoti hamda hisob-kitob prinsiplari hukumat tomonidan hujjatlashtirilgan; mahalliy OAV 2024 byudjetida NIRC oqimlari miqyosini alohida ta'kidlagan. Bu dizayn siklik tebranishlarni yumshatish, soliq yukini minimal saqlash va kreditga qaramlikni cheklashga xizmat qiladi.

Singapurning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi “aktivga aylangan farovonlik” g'oyasi bilan uyg'un: HDB orqali ommaviy uy-joy siyosati (1990-yillardan “aktiv sifatida uy-joy” paradigmasi) ijtimoiy uyg'unlik, mobil'lik va jamg'arma intizomini rag'batlantirdi; 2020 yilga kelib rezidentlarning qariyb 79% i jamoat uy-joyida yashar edi. Bu model mehnat bozorida moslashuvchanlik (kasbiy tayyorgarlik, ko'nikmalarni yangilash), sog'liqni saqlashdagi sarmoyadorlik, transport-infratuzilma va port/logistika klasterlarining uzluksiz modernizatsiyasi bilan birga ishlaydi. Struktura sikllarida (1985 mahalliy turg'unlik, 1997 Osiyo inqirozi, 2001 texnologik pasayish, 2008 global moliyaviy inqiroz, 2020 pandemiya) hukumat odatda tezkor mehnatni saqlash choralari, kredit kafolatlari va investitsion dasturlar bilan javob bergan; fiskal yostiq sifatida esa NIRC va davlat balansining kuchi xizmat qilgan. 2024 yilda jon boshiga YAIM joriy dollarda 90,7 ming AQSh dollariga yetgani, tashqi savdo nisbatining juda yuqori bo'lib qolayotgani Singapurning “kichik, ammo chuqur integratsiyalashgan va yuqori samarador boshqaruv” modelining natijasidir.



2-rasm. Singapurning iqtisodiy boshqaruv modeli.⁶

Xulosa qilib aytganda, Singapurning davlat iqtisodiy boshqaruvi modeli samaradorlik, intizom va uzoq muddatli strategik qarash uyg'unligi asosida shakllangan bo'lib, u mustaqillikdan buyon barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'ldi. Institutsional innovatsiyalar EDB kabi yagona rivojlanish idoralari, NIRC orqali fiskal intizom va davlat investitsiya fondlari, HDB orqali ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlash mamlakatni resurslardan mahrum, kichik bozorli hududdan global moliya, savdo va logistika markaziga aylantirdi.

Statistik ko'rsatkichlar, jumladan, 2024 yilda jon boshiga YAIMning 90 ming dollardan oshishi, ishsizlik darajasining 2% atrofida barqaror turishi va xalqaro boshqaruv reytinglarida eng yuqori o'rinlarda qayd etilishi, ushbu modelning real samaradorligini yaqqol isbotlaydi. Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaffoflik, meritokratiya, regulyatorlarning sifatli faoliyati va uzoq muddatli rejalashtirish kombinatsiyasi davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirishning universal modeli sifatida boshqa mamlakatlar uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin.

Janubiy Koreya modeli


Janubiy Koreya davlat iqtisodiy boshqaruvini samarali qilish bo'yicha klassik misoldir. Uning modellari «taraqqiyotchi davlat» (developmental state), chaebol markazlangan

⁶ Toh M. H. Developing a digital business ecosystem in Singapore //Digital transformation management. – Routledge, 2022. – C. 164-184.

sanoat siyosati, va keyinchalik institutsional islohotlar kombinatsiyasidan iborat. 1960–1970-yillarda Park Chung-hee boshqaruvi davrida davlat o‘shish strategiyasini belgilab, eksportga yo‘naltirilgan sanoat strategiyasi, infratuzilma investitsiyalari va moliyaviy kreditorlik orqali sanoatlashtirishni tezlashtirdi; natijada 1960-yillardagi past daromadli agrar iqtisoddan 1970–1980-yillarda tez o‘sovchi sanoat hududiga o‘tish boshlandi. Bu davrda davlat muhim ahamiyat kasb etib, resurslarni muayyan sanoat tarmoqlariga kanalizatsiya qildi va davlat-bank tizimi hamkorligida chaebol (yirik guruhlar) shakllandi.

1997-yildagi Osiyo moliyaviy inqirozi Janubiy Koreya modelining zaif tomonlarini ochib berdi va mamlakat boshqaruvida muhim burilish nuqtasiga aylandi. 1997 yil oxirida hukumat IMF bilan dastur tuzib, banklar va korporativ sektorda keskin strukturaviy islohotlarni boshladi: banklarni kapitallashtirish, moliyaviy regulyatsiyani kuchaytirish, korporativ boshqaruvni oshirish va kapital bozorlarini liberallashtirish kabi choralar joriy etildi. Ushbu choralar davlatning avtomatik aralashuvini cheklab, tashqi kapitalga ochiqlik va korporativ shaffoflikni oshirishga yo‘naltirildi; natijada qisqa muddatli og‘riq bilan birga barqarorlik va innovatsion faollik uchun institutlar mustahkamlandi. IMF va tadqiqotlar bu davrni Koreyaning «1998-1999 islohotlar» bosqichi sifatida tasniflaydi va ularning tavsiflari ham yangicha boshqaruv mexanizmlariga taalluqlidir.

2000-yillardan boshlab samaradorlikni oshirishda e-hukumat, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi institutlar markaziy o‘rin oldi. Raqamli boshqaruv (e-government) va ma‘lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish uchun platformalar, davlat xizmatlarini onlaynga o‘tkazish va ma‘lumot almashishni optimallashtirish jarayonlari 1990-2000-yillardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlandi; buning natijasida davlat xizmatlari tezligi, monitoring va xizmat ko‘rsatish sifati sezilarli yaxshiladi. 2016 yilda qabul qilingan Kim Young-ran (Improper Solicitation and Graft Act) kabi anti-korrupsiya qonunlari va Anticorruption and Civil Rights Commission faoliyati orqali davlat boshqaruvida odatdagi sovg‘a-qaramlik madaniyati va ma‘muriy suiiste‘mollikka qarshi chora-tadbirlar kuchaytirildi, bu esa xizmatlar ko‘rsatishning adolatliligi va imtiyozlardan xoli bo‘lishiga yordam berdi. Shuningdek, Sejong shahridagi yangi markaziy ma‘muriy kompleks kabi inshootlar va byurokratik tuzilmalarni optimallashtirishga oid tashabbuslar ham boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qildi.



3-rasm. Janubiy Koreya davlat iqtisodiy boshqaruv modelining rivojlanish bosqichlari.⁷

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreya davlat iqtisodiy boshqaruv modelini mamlakatning tezkor sanoatlashtirishidan boshlab, global raqobatbardosh innovatsion iqtisodiyotgacha bo'lgan yo'lini yaqqol namoyon etadi: 1960–1970-yillardagi kuchli davlat nazoratida eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosati va chaebol tizimi iqtisodiy o'sishga zamin yaratdi, 1997-yilgi moliyaviy inqiroz esa institutlarni isloh qilish, moliyaviy shaffoflik va

⁷ Jin Y. South Korea in 2024: Political Uncertainty, Economic Challenges, and Cultural Ascendancy //Asian Survey. – 2025. – T. 65. – №. 2. – C. 214-227.

korporativ boshqaruvni kuchaytirishga turtki berdi; 2000-yillardan e’tiboran raqamli boshqaruv, korrupsiyaga qarshi qonunlar va innovatsion investitsiyalar davlat samaradorligini oshirdi. Bugungi kunda Janubiy Koreya modeli kuchli davlat siyosati va bozor mexanizmlarini uyg’unlashtirish orqali barqaror rivojlanish mumkinligini ko’rsatib, boshqa davlatlar uchun ham samarali tajriba sifatida xizmat qiladi.


Qozog’iston modeli

Qozog’istonning davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini tushunish uchun avvalo uning tarixiy kontekstini hisobga olmaslik mumkin emas. Sovet Ittifoqi tarkibidan chiqib mustaqillikka erishgan 1991 yildan boshlab Qozog’iston erkin bozor mexanizmlariga o’tish, mulkchilikni qayta taqsimlash va resurslarni boshqarish bo’yicha keskin transformatsiyalarni boshdan kechirdi. 1990—2000 yillarda mamlakat tabiiy resurslar (neft, gaz, minerallar) bo’yicha tez o’sish manbaini aniqladi va bu siyosat bir tomonlama resurslarga tayanishga olib keldi. Shu davrda davlatning roli ya’ni iqtisodiy boshqaruv modeli markazlashgan, prezidentlik administratsiyasiga qaratilgan va davlat korxonalari (xususan energiya sektori) orqali iqtisodiyotni shakllantirishga yo’naltirilgan bo’ldi. 2000-2010-yillarda ichki va tashqi siyosatdagi barqarorlik, katta miqdordagi neft daromadlari va tashqi investitsiyalar mamlakatga makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam berdi; ammo bu davrda institutsional islohotlar, raqobatni rivojlantirish va qonuniy ishonchni mustahkamlash masalalari yetarli darajada hal etilmadi. 2010-yillardan keyin Prezidentlik strategiyalari (masalan, “Kazakhstan 2050”) va strategik fondlar orqali iqtisodni diversifikatsiyalash, infratuzilmaga sarmoya va raqamlashtirishga urg’u berildi, biroq siyosiy markazlashuv hamon sezilarli bo’lib qoldi.

Hozirgi paytdagi Qozog’iston davlat iqtisodiy boshqaruvi modeli bir qator elementlar bo’yicha samaradorlik ko’rsatmoqda, lekin muhim limitlarga ham duch keladi. Kuchli tomonlariga makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash (byudjet va valuta siyosati orqali), suveren fondlar va davlat korxonalari orqali strategik resurslarni boshqarish, katta infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda so’nggi yillarda e-hukumat va raqamlashtirishni kengaytirish kiradi. Shu bilan birga, davlatning iqtisodiy boshqaruvida davlat korxonalari va yirik hozirgi monopoliyalarning (Samruk-Qazyna kabi) ahamiyati juda katta bo’lib, bu raqobatni cheklaydi va xususiy sektorning erkin rivojlanishiga to’sqinlik qilishi mumkin.

Qozog’iston hukumatining islohotlari soliqlarni soddalashtirish, biznes uchun ma’muriy to’siqlarni kamaytirish, mamlakat brendini qurish va investitsiyalarni jalb etish bo’yicha qadamlar ijobiy natija bergan bo’lsa-da, sud mustaqilligi, korrupsiyaga qarshi kurashdagi tizimli yondashuv va qonun ustuvorligini mustahkamlash bo’yicha chuqurroq o’zgarishlar zarur.

Amaliy tahlil nuqtayi nazaridan Qozog’iston modeli samaradorligini oshirish uchun bir nechta ustuvor yo’nalishlar mavjud. Birinchidan, iqtisodiy diversifikatsiyani amaliy va o’lchab bo’ladigan siyosatlar orqali davom ettirish, masalan, qishloq xo’jaligi, qayta ishlash sanoati, yuqori texnologiyalar va yashil energetika sohalariga yo’naltirilgan moliyaviy rag’batlar va infratuzilma sarmoyalari. Ikkinchidan, davlat korxonalarini shaffof boshqaruv va raqobat muhitini yaratish orqali bosqichma-bosqich liberallashtirish; bu xususiy sektorni rag’batlantiradi va umumiy samaradorlikni oshiradi.



4-rasm. Qozog'iston davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi modeli.⁸

Qozog'iston davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi modeli mamlakatning tarixiy rivojlanish bosqichlari va hozirgi iqtisodiy jarayonlarini umumlashtirgan holda, barqaror o'sishga yo'naltirilgan boshqaruv strategiyasini ko'rsatadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyot asosan xomashyo eksportiga tayanib kelgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda davlat resurslarini samarali boshqarish, suveren jamg'armalarni shakllantirish va ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltirish orqali barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratildi. Makroiqtisodiy barqarorlik, byudjet siyosatini mustahkamlash, valyuta kursini tartibga solish va davlat investitsiyalarini kengaytirish Qozog'iston iqtisodiy boshqaruvining asosiy ustunlariga aylandi.

⁸ Nurekenova E. S. et al. Assessment of the economic efficiency of industrial enterprise management during the Kazakhstan integration into the EAEU //Polish Journal of Management Studies. – 2022. – T. 26. – №. 1. – C. 233-249.

Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Singapur va OECD mamlakatlarining iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirish modellari⁹

| Mamlakat | Asosiy tamoyillar | Raqamlashtirish va innovatsiyalar | Byudjet / moliyaviy instrumentlar | Inson kapitali & ijtimoiy siyosat | Asosiy natijalar |
|----------------|---|--|---|---|---|
| OECD | Yaxshi boshqaruv: shaffoflik, hisobdorlik, samaradorlik, inklyuzivlik, barqarorlik | Ochiq ma’lumotlar, e-gov platformalari | Performance budgeting; fiskal barqarorlik; | Ta’lim va malaka oshirishga sarmoya; ijtimoiy himoya dasturlari | Umumiy xalqaro standartlar; qoidalar va jarayonlarni modernizatsiya qilish samarasi |
| Singapur | Markaziy boshqaruv samaradorligi, tezkor qaror qabul qilish, biznes uchun qulay muhit | Juda ilg‘or e-gov, birlashtirilgan raqamli xizmatlar, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv | Soliq rag‘batlari (investitsiya va R&D uchun), samarador byudjet taqsimoti | Ta’lim tizimiga kuchli sarmoya; malaka va kasbiy tayyorgarlik | Yuqori xalqaro raqobatbardoshlik, yuqori iqtisodiy integratsiya |
| Janubiy Koreya | Innovatsiyaga yo‘naltirilgan sanoat siyosati; strategik sanoat siyosati | R&D qo‘llab-quvvatlash, raqamli infratuzilma, ilmiy-texnik bazani kuchaytirish | Sanoat uchun mo‘ljallangan kredit va subsidiyalar; byudjetni o‘sish prioritetiga yo‘naltirish | Ta’limga katta sarmoya va R&D; ishchi kuchining yuqori malakasi | Tez industrializatsiya; davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi balans |
| Polsha | Integratsiya va muvofiqlik (EU standartlariga moslashish) | fondlar orqali texnologik modernizatsiya | EU fondlaridan foydalanish; byudjetni barqarorlashtirish; | Ijtimoiy dasturlarni muvofiqlashtirish; | Integratsiya orqali institutlarning tez moslashuvi |

| | | | | | |
|--------------------|--|---------------------------------|---|---|--|
| | | | strukturaviy investitsiyalar | | |
| Qozog‘iston | Transformatsiya va modernizatsiya, resurslar diversifikatsiyasi, | “raqamli hukumat” tashabbuslari | Neft-gaz daromadlarini boshqarish, byudjet rejimi va fiskal siyosat | Daromadlarni ijtimoiy sohalarga yo‘naltirish; ta‘lim va sog‘liqni saqlash | Tabiiy boyliklardan foydalanish natijasida barqaror o‘shish, |

Umumiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston, Polsha, Janubiy Koreya, Singapur va OECD mamlakatlarining davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirish tajribasi o'ziga xos, ammo umumiy jihatlarga ham ega. Qozog'istonning modeli resurslardan samarali foydalanish va davlat ishtirokini optimallashtirishga qaratilgan bo'lsa, Polsha Yevropa integratsiyasi va huquqiy-institutsional muhitni mustahkamlash orqali iqtisodiy o'sishga erishgan. Janubiy Koreya innovatsiyalar va davlatning faol sanoat siyosati orqali yuqori texnologiyali sohalarni rivojlantirgan, Singapur esa biznes muhitini qulaylashtirish, xalqaro investitsiyalarni keng jalb etish va davlat boshqaruvini raqamlashtirishda yetakchilik qilmoqda. OECD mamlakatlari esa o'zaro tajriba almashish, ochiq bozor tamoyillari, samarali fiskal va ijtimoiy siyosat orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab kelmoqda. Bularning barchasi iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishda siyosiy barqarorlik, kuchli institutlar va uzoq muddatli strategik rejalashtirishning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, davlat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirishda xalqaro tajriba, xususan OECD, Singapur, Janubiy Koreya va Qozog'iston kabi mamlakatlarning yondashuvlari O'zbekiston uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, natijadorlikka asoslangan byudjetlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish orqali iqtisodiy siyosat samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, shaffoflik, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillariga tayanadigan boshqaruv modeli davlat apparatining jamiyat oldidagi ishonchini mustahkamlaydi hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalardan foydalanish, avvalo, “O'zbekiston-2030” strategiyasi maqsadlariga muvofiq holda davlat boshqaruvini natijaviy, raqamli va innovatsion yo'nalishda rivojlantirishni talab etadi. Bu borada xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini joriy etish, iqtisodiy islohotlarning monitoringi va baholash mexanizmlarini kuchaytirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, xalqaro tajriba va milliy sharoit uyg'unligi asosida iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirish mamlakatning raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Richard A., Daniel T. (ed.). Managing public expenditure a reference book for transition countries: A Reference Book for Transition Countries. – OECD Publishing, 2001.
2. Quah J. S. T. (ed.). Public administration Singapore-style. – Emerald Group Publishing Limited, 2010.
3. Chung C. S., Choi H., Cho Y. Analysis of digital governance transition in South Korea: Focusing on the leadership of the president for government Innovation //Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2022. – T. 8. – №. 1. – C. 2.
4. Bhuiyan S. H., Amagoh F. Public sector reform in Kazakhstan: issues and perspectives //International Journal of Public Sector Management. – 2011. – T. 24. – №. 3. – C. 227-249.

5. Kinsbergen S., Rana Z. A. Global trends in development cooperation budgets at a glance 2020-2025. – 2025.

6. Toh M. H. Developing a digital business ecosystem in Singapore //Digital transformation management. – Routledge, 2022. – C. 164-184.

7. Jin Y. South Korea in 2024: Political Uncertainty, Economic Challenges, and Cultural Ascendancy //Asian Survey. – 2025. – T. 65. – №. 2. – C. 214-227.

8. Nurekenova E. S. et al. Assessment of the economic efficiency of industrial enterprise management during the Kazakhstan integration into the EAEU //Polish Journal of Management Studies. – 2022. – T. 26. – №. 1. – C. 233-249.